DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-78 Pages: 679-684

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



UMMON WRITER JOHA AL-KHARISIY

Mahfuza Shamsimatova
Independent Researcher
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: mahfuzairismatova63@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Omani literature, Joha al-Kharisiy, Marilyn Booth, international awards, Man Booker Prize, Zayed Book Award.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: Omani literature is currently developing rapidly and has become the focus of attention for literary scholars worldwide. This article discusses Joha al-Kharisiy, one of the prominent representatives of this literature. The study provides an in-depth analysis of the writer's entry into the literary world, her career, and her literary heritage, with several examples provided.

UMMON ADIBASI JOHA AL-XARISIY

Mahfuza Shamsimatova
Mustaqil tadqiqotchi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: mahfuzairismatova63@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ummon adabiyoti, Joha al-Xarisiy, Merilin But, xalqaro mukofotlar, Man Booker mukofoti, Zayd kitob mukofoti.

Annotatsiya: Ummon adabiyoti bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgani bilan jahon adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo'lib turibdi. Mazkur maqolada ushbu adabiyotning taniqli vakilasidan biri bo'lgan Joha al-Xarisiy haqida so'z yuritilgan. Ishda ijodkorning adabiyot olamiga kirib kelishi, faoliyati va adabiy merosi chuqur tahlil qilingan va qator misollar keltirib o'tilgan.

ОМАНСКАЯ ПИСАТЕЛЬНИЦА ДЖОХА АЛЬ-ХАРИСИЙ

Махфуза Шамсиматова

Соискатель
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: mahfuzairismatova63@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оманская литература, Джоха аль-Хариси, Мэрилин Бут, международные премии, премия Ман Букер, премия книги Зайда.

Аннотация: Оманская литература в настоящее время стремительно развивается и продолжает привлекать внимание мировых литературоведов. В данной статье рассматривается один из известных представителей этой литературы – Джоха аль-Хариси. В работе подробно анализируются его путь в мир литературы, его деятельность и литературное наследие, приведены различные примеры.

Kirish. Arab adabiyoti o‘zining qadimiy ildizlari bilan birga boy adabiy xazinaga ham ega. Bu adabiy xazinaning taraqqiyotida, ayniqsa, Ummon adabiy muhitining ta’siri beqiyos bo‘lib, bugungi kunda ummonlik ijodkorlar yaratgan asarlar jahon adabiyotshunoslarining diqqat markazida bo‘lib turibdi. O‘z asarlari bilan adabiyot rivojiga sezilarli hissa qo‘shib kelayotgan, yangi zamon arab adabiyotining atoqli vakillaridan biri, shubhasiz, ummonlik adiba Joha al-Xarisiy hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ummon adibasi Joha al-Xarisiyning hayot va ijod yo‘liga bag‘ishlangan mazkur ilmiy tadqiqot ishida badiiy tahlil jarayonida tizimli tahlil metodlaridan va qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Natijalar. Taniqli ijodkor Joha al-Xarisiy 1978-yilning 16-iyul sanasida Ummon sultonligida tavallud topgan. U o‘n ikki aka-uka oilaning to‘rtinchi farzandi hisoblanadi. Johaning o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, uning yoshligi she’riyat va kitobxonlik bilan o‘ralgan boy adabiy muhitda kechgan (Yahya, 2019, p. 240). Yozuvchi ushbu fikrlarni bobosi va amakisi Ummonning mashhur shoirlaridan bo‘lishganligi bilan izohlaydi. Bundan tashqari, ijodkor farzandlarining ta’lim-tarbiyasi uchun qayg‘uradigan otasi borligidan o‘zini behad baxtiyor his qilishini ham alohida ta’kidlab o‘tadi. Bo‘lajak ijodkorning onasi ham adabiyot ixlosmandlaridan bo‘lib, she’r yod olishi va uni ajoyib tarzda yetkazishi bilan ajralib turardi. Shubhasiz, bu bo‘lajak yozuvchining kelajak kamolotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Qizining adabiyot olamiga kirib kelishida, albatta, onasining hissasi beqiyos bo‘ldi. Bundan tashqari, Johaning uyida bolalar kitoblaridan iborat ulkan kutubxonasi bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, bularning barchasi yozuvchining adabiyotga, ilm-ma’rifatga erta mehr qo‘yishiga zamin yaratgan. Uydagi kutubxona Johani erta o‘qishga sho‘ng‘ishiga undardi. Bo‘lajak adiba u yerda bolalar uchun qiyin bo‘lgan kitoblarni mutolaa qilardi. Albatta, ushbu harakatlar o‘z natijasini bermasdan

qolmadi. Joha kitoblar olami bilan tanishish davomida oʻzining tilshunoslikdagi mahoratini oshirdi va arab tilini toʻlaqonli tushunish qobiliyatini rivojlantirdi. Shu tarzda, Joha al- Xarisiy kitoblar va she’rlar qurshovida ulgʻaydi. Bu uning qalbida arab tiliga muhabbat va adabiyotga boʻlgan ishtiyoqni uygʻotdi. Keyinchalik, bu samimiy muhabbat uning asarlarida oʻz aksini topdi. Joha bugungi kunda uch farzandning mehribon onasi boʻlib, Ummon sultonligida istiqomat qiladi.

Joha al-Xarisiy Ummon sultonligida, shu bilan bir qatorda, Angliyada ham tahsil olgan. 2003-yil arab tili boʻyicha magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Yozuvchi ilm-fan ravnaqiga oʻz hissasini qoʻshishdan hech bir vaqt toʻxtamagan. Uning magistrlik darajasini olgandan soʻng yana ta’limga boʻlgan ishtiyoqi soʻnmaganini 2010-yilda Shotlandiyaning Edinburg universitetida mumtoz arab adabiyoti boʻyicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilganligi haqidagi ilmiy xabarlar ham tasdiqlaydi (Rahman, 2019, p. 230). Bugungi kunda Joha al-Xarisiy Sulton Qobus universitetida ijtimoiy bilimlar va adabiyot fakultetining professori sifatida oʻz faoliyatini olib bormoqda.

Yuqorida zikr qilinganidek, Joha al-Xarisiy zamonaviy ummon adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Mazkur fikrlarni ijodkor yaratgan asarlarida oʻzi tugʻilib oʻsgan Ummon sultonligidagi hayot tarzini, undagi kishilarni oʻrab turgan turfa xil ijtimoiy muammolarni, shu bilan birga, jamiyatda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarni keng qamrovda, batafsil tasvirlashi bilan izohlash mumkin. Darhaqiqat, Johaning asarlari unda koʻtarilgan mavzu va gʻoya jihatidan ham, badiiy tasvir nuqtayi nazaridan ham nihoyatda qimmatlidir. Ushbu fikrlarni, ayniqsa, u yaratgan romanlarga nisbatan bildirish mumkin. Shu boisdan, ijodkorning romanlari bugungi kunda jahon adabiyotshunoslarining tadqiqot manbasiga aylangan.

Muhokama. Joha al-Xarisiyning ijodi romanlar, kichik qissalar, adabiy matnlar va adabiy tadqiqotlarni oʻz ichiga oladi. Yozuvchi ijodiy faoliyatini orzu va haqiqatni ajib bir tarzda qorishtirib yuborgan “Orzular” (2004) romanidan boshlagan. Ushbu roman kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan. Shundan soʻng, adiba oʻzining badiiy mahorati ustida jiddiy shugʻullanishga kirishadi. Joha ushbu yillar davomida yuqorida koʻrib oʻtganimizdek, doktorlik dissertatsiyasi ustida ham jiddiy tadqiqotlarni olib borayotgan edi. U hech bir vaqt ilm olishdan, izlanishdan toʻxtamadi. Albatta, ushbu say-harakatlar oʻz natijasini bermay qolmadi. Koʻp oʻtmay, ummon ijtimoiy hayotini keng qamrovda tasvirlagan va Johaga katta shuhrat olib kelgan ikkinchi romani “Oy xonimlari” (2010) dunyo yuzini koʻrdi (Al-Harthi, 2010, p. 32). Ushbu roman arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilingach, jahon olimlarining ummon adabiyotini oʻrganishga boʻlgan qiziqishlari yanada ortganligini alohida ta’kidlab oʻtish lozim. Johaning “Oy xonimlari” romani bugungi kungacha koʻplab jahon tillariga tarjima qilindi. Ushbu asar sharqda xitoy, koreys, hind, indoneziya, fors, turk, ozariy tillariga, gʻarbda ingliz, fransuz, yunon, venger,

italyan, portugal, rumin, rus, bolgar tillariga oʻgirilgan. Bir qancha adabiyotshunoslar ushbu asarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etdilar va hozirgi kunda ham ushbu asar toʻgʻrisida bir qancha ilmiy kuzatuvlar olib borilmoqda.

Joha al -Xarisiy yaratgan navbatdagi “Naranja” (2016) romani ham keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan va koʻplab munaqqidlar va kitobxonlarning olqishiga sazovor boʻlgan. “Oy xonimlari” ham, “Naranja” ham malayalam tiliga (Hindiston), “Oy xonimlari” esa singal tiliga tarjima qilingan. Yozuvchining toʻrtinchi romani “Jayronning ipagi” nomi ostida 2021-yil dunyo yuzini koʻrdi.

Joha al -Xarisiy ijodi romanlar sohasi bilangina chegaralanmaydi. Albatta, yozuvchi kichik qissalar yozishda ham oʻzini sinab koʻrgan. Aytish joizki, ijodkor adabiyotning ushbu janrida ham koʻplab muvaffaqiyatlar qozongan. Adiba tomonidan nashr etilgan “Lubnaning ketayotgan vaqtidagi hayotidan parchalar” (2001) nomli kichik qissalar toʻplami, “Peshayvondagi bolakay” (2007) va “Sevgi madhi” (2008) nomli kichik qissalar toʻplami yuqoridagi fikrlarga toʻlaqonli asos boʻla oladi.

Yozuvchi bolalar adabiyotini ham bee’tibor qoldirmagan. U oʻzining sermahsul ijodi bilan ushbu adabiyotni boyishiga xizmat qildi. Jokha bolalarga bagʻishlab “Qushlar uyasi” (2010) va “Bulut istaklari” (2015) nomi ostida oʻz qissalarini nashr etdi.

Joha al-Xarisiyning oʻz ilmiy faoliyati davomida olib borgan tadqiqotlariga, ilmiy kuzatuvlariga ham alohida toʻxtalib oʻtish lozim. U arab adabiyotining taniqli tadqiqotchilardan biri boʻlib, “Quyoshlarni ta’qib qilish: Imodiddin Al-Isfahoniyning “Xorida al-qasr” kitobida adabiy kompozitsiyaga yondashuv” (2010) nomli kitob yozgan. Joha, shuningdek, “Ummon va Koʻrfaz adabiyoti tadqiqotlari” (2004) kitobini yaratishda ham qatnashgan. “Abu Hakam Shayx Ahmad bin Abdulloh al-Harisiy” (2014) toʻplamini jamlash va tadqiq qilishga ham yozuvchi oʻz hissasini qoʻshgan.

Johaning hikoyalari nafaqat arab diyorida, balki jahon adabiyoti osmonida ham porloq yulduz singari nur taratib turibdi. Uning asarlari turfa xil millat va madaniyat vakillar qalbidan chuqur joy olmoqda. “Yugurayotgan otlar” qissasi ana shunday asarlardan biri boʻlib, u ingliz va italyan tillariga tarjima qilingan. Shu bilan birga, ushbu asar italyan adabiy jurnalida ham bosib chiqarilgan. Asar kitobxonlarning his-tuygʻularini junbushga keltiruvchi, ularga zavq bagʻishlovchi ajib bir qudratga ega. Bundan tashqari, 2018-yil Joha al-Xarisiyning jurnalda “Maymuna” nomli qissasi ingliz tilida nashr qilindi. 2014-yil “Toʻy” nomli qissasi koreys tiliga tarjima qilinib, 2014-yilda saylanma kitobidan joy olgan. Shu zaylda ijodkorning boshqa koʻplab asarlari ham chet tiliga oʻgirilishda davom etdi. “Sevgi madhida” nomli qissasi ham ayni shu jumladandir. Mazkur asar nemis tiliga mahorat bilan tarjima qilingan va 2007-yil Shveytsariyadagi “Lisan” jurnalida nashr etilgan.

Joha al -Xarisiy o‘z asarlari uchun nufuzli xalqaro va mahalliy mufokotlarga loyiq ko‘rilgan. Buni Joha al- Xarisiyning jahonning nufuzli mukofotlaridan birini qo‘lgan kiritganligi bilan izohlash mumkin. Yozuvchi Fransiya, Germaniya, Polsha, Kolumbiya va Chilidan mukofot uchun nomzodlar ro‘yxatiga kiritilgan beshta raqibini ortda qoldirdi va o‘zining “Oy xonimlari” romani uchun xalqaro Man Booker mukofotiga sazovor bo‘ldi (Haccac, 2019, p. 52).

Ta’kidlash joizki, Joha Al-Xarisiy ushbu nufuzli mukofotni qo‘lga kiritgan birinchi arab ayoli hisoblanadi. Albatta, bu katta yutuqqa erishishda unga amerikalik akademik Merilin But ham yaqindan yordam bergan. Unga ko‘ra, Man Booker mukofotiga davogar o‘z asarini ingliz tilida yozishi yoki mazkur tilda nashr qildirishi kerak edi. Merilin But romanni arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilish vazifasini o‘z zimmasiga oldi va bu bilan romanning dunyo kitobxonlariga asl holatida yetkazilishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Haqiqatdan ham, roman xalqaro miqyosda katta muvaffaqiyat qozongan bo‘lib, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Avstraliya, Hindiston va Kanadada eng ko‘p sotilgan kitoblar ro‘yxatidan joy olgan.

Adibaning yana boshqa ko‘plab asarlari kitobxonlar mehrini qozongan va mukofotlarga loyiq ko’rilgan. Ijodkorning “Naranja” romani shunday asarlaridan biri hisoblanadi. Mazkur asar 2016-yilda madaniyat, san’at va adabiyot bo‘yicha Sulton Qobus mukofotiga sazovor bo‘lgan (Haccac, 2019, p. 52). Bundan tashqari, yozuvchining “Oy xonimlari” romani 2011-yilida Zayd kitob mukofotiga nomzod bo‘lgan. Romanning fransuz tilidagi tarjimasi 2021-yilda Fransiya poytaxti Parijda o‘tkazilgan an’anaviy to‘qqizinchi arab adabiyoti mukofotiga sazovor bo‘lgan. (Disengi, 2022, p. 19). Shuningdek, Johaning mazkur romani Rossiya poytaxti Moskvada rus tilidagi romanlar turkumida, xorijiy adabiyot bo‘yicha yigirmanchi adabiyotlarning uzun ro‘yxatiga kiritilgani e’lon qilingan.

Xulosa. Umuman olganda, ummonlik yozuvchi Joha al-Xarisiyning badiiy ijodini o‘rganish, ularni bugungi o‘zbek kitobxonlariga to‘laqonli yetkazish, ijodkorning asarlarini chuqur tahlilga tortish va ularning yangidan-yangi badiiy qirralarini kashf qilish bugungi kun adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Alharthi, J. (2010). Celestial Bodies. Sayyidat al-Qamar. – Beirut: Dar Al-Adab Publishing House. – 228 p. (in Arabic)
2. Disengi, M. (2022). The Image of Woman in Juha al-Harisi’s Novel “Sayyidat al-Qamar”. Juha al-Harisi’nin “Seyyidat al-Qamar” adlı romanında kadın imajı. – Ankara: Şanlıurfa Publishing House. – 137 p. (in Turkish)

3. Haccac, H. (2019). “Sayyidat al-Qamar… The Dove’s Knock, the Watchful Flower, and the Dark-Horse Woman”. “Sayyidat al-Qamar… Ṭuruq al-ḥamāmah wa al-zahrat al-ḥārisah wa al-farāsah al-sawdāʾ”. – Beirut: Miritus Sekafiyye 8. – 67 p. (in Arabic)

4. Rahman, A. (2019). “Sayyidat al-Qamar” between the space of dream and the narrowness of reality. “Sayyidat al-Qamar” bayna fusḥat al-ḥulm wa ḍīq al-wāqiʿ. – Beirut: Miritus Sekafiyye 8. – 234 p. (in Arabic)

5. Saidova N.M. Features of the development of the Saudi realistic story in the second half of the twentieth century. Osobennosti razvitiya saudovskogo realisticheskogo rasskaza vo vtoroy polovine XX veka. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Germany, 2021. - 365p

6. Yahya, A. (2019). Why Juha al-Harithi. Limādhā Juḥā al-Ḥārithī. – Beirut: Miritus Sekafiyye 8. – 244 p. (in Arabic)